

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ISKANDAROVA GULBAHOR TURABAYEVNA

BOLALAR NUTQINING ANTROPOTSENTRIK TADQIQI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Iskandarova Gulbahor Turabayevna

Bolalar nutqining antropotsentrik tadqiqi 3

Искандарова Гулбахор Турабаевна

Антропоцентрическое исследование детской речи 25

Iskandarova Gulbakhor Turabaevna

Anthropocentric study of children's speech 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 52

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ISKANDAROVA GULBAHOR TURABAYEVNA

BOLALAR NUTQINING ANTROPOTSENTRIK TADQIQI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.1.PhD/Fil107 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmanova Shoir Rustamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kurbanova Munavvara Abdujabbarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Mukaddas Tursunaliyevna
filologiya fanlari doktori, prof.v.b.

Yetakchi tashkilot:

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “ 8 ” 04 soat 14⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (413 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “ 18 ” 03 kuni tarqatildi.
(2026-yil “ 18 ” 03 daqi 1- raqamli reyestr bayonnoma)



A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d.,
professor

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,
professor

N.Z. Normurodova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida nutqiy jarayonlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor bolalar nutqining rivojlanishiga qaratiladi. Binobarin, bolaning ta'lim-tarbiyasi va kognitiv taraqqiyoti bilan bog'liq xususiyatlar, dastlab, uning nutqiy xulqida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, til hodisalarini antropotsentrik aspektda tahlil qilish nutqiy faoliyatni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni mazmunan boyitishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida bolalar nutqini sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlarda tadqiq etishga qaratilgan ishlar mavjud. Bolalar nutqini turli aspektlarda o'rganish, xususan, bolalarning so'z boyligini oshirish, ularning fikrlash, muloqot qilish, ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish imkoniyatlarini chuqur ochib berishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning mukammal ta'lim va tarbiya olishi masalasi davlat siyosati darjasiga ko'tarilgandir. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish"¹ asosiy masalalardan biri sifatida qayd etilgach, bugungi kunda ta'limda amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator vazifalar hamda ilmiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolar belgilab berildi. Mana shunday muammolardan biri bolalar nutqining sotsiolingvistik, psixolingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini monografik aspektda tadqiq etish masalasidir. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa-da, hozirga qadar u sotsiopsixolingvistik, gender va lingvomadaniy nuqtayi nazardan monografik planda alohida tadqiq qilinmagan. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Til hodisalari turli ko'rinishda bolalar nutqida ham uchraydi. Shu bilan birga, bolalar nutqida katta yoshdagi shaxs nutqiga o'xshamagan o'ziga xos xususiyatlar ham borki, ular bolalar nutqiy faoliyati va lisoniy axloqining kommunikativ ifodasini belgilaydi. Shu bois bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlarini antropotsentrik nuqtayi nazardan tadqiq etish nutqiy faoliyat nazariyasi, til va nutq, tafakkur va nutq, til va madaniyat munosabati singari muammolarni yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda bolalar nutqi masalasini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Dunyo tilshunosligida bolalar nutqi, asosan, psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Shuningdek, bolalar nutqining psixolingvistik va sotsiolingvistik tadqiqiga qaratilgan ayrim tadqiqotlar ham mavjud. Binobarin, bu borada olib borilgan izlanish natijalari tahlili psixologlar J.Piaje, A.Vallon, A.A.Leontyev hamda psixolingvistlar A.N.Gvozdev, D.G.Elkin, S.N.Karpova, N.I.Lepskaya, A.M.Shaxnarovich kabi tadqiqotchilarning ishlarida o'z ifodasini topgan². Mazkur olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyat qismida, asosan, kichik yoshdagi bolalar nutqiga xos xususiyatlar til va ruhiyat bog'liqligida bayon etilgan.

O'zbek tilshunosligida bolalar nutqi masalasiga qiziqish keyingi davrda paydo bo'lganini ko'rish mumkin. Xususan, N.S.Sayidirahimova, M.Qurbonova, D.Yuldasheva, M.Shamsiyeva, H.Ahmedova, H.Davlatova, N.Yarasheva, N.Musayeva, O.Saidahmedovalar³ tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlari shular jumlasidandir. Mazkur izlanishlarda, asosan,

² Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.: Педагогика-Пресс, 1994. – С. 526; Валлон А. Психическое развитие ребенка. – М.: Просвещение, 1967. – С. 196; Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969. – С. 214; Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – СПб, М.: Детство-Пресс, 2007. – С. 470; Элькин Д.Г. Психология речи. Текст лекций для студентов филологического факультета. – Одесса, 1971. – С. 90; Карпова С.Н. Особенности ориентировки на слово у детей. – М., 1978. – С. 165; Лепская Н.И. Онтогенез речевой коммуникации. Автореф. дисс. док-ра фил. наук. – М., 1989. – С. 31; Шахнарович А.М. Детская речь в зеркале психолингвистики. Лексика. Семантика. Грамматика. – М., 1999. – С. 169.

³ Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 126 б.; Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 153 б.; *shu muallif*. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – 240 б.; Юлдашева Д.М. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Фарғона, 2022. – 223 б.; Шамсиева М.Б. Билингвал болалар нутқининг психолингвистик тадқиқи. Филол. фан. б. фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 126 б.; Н.Ахмедова. Образли тафаккур ва ўзбек болалар нутқи. Филол. фан. б. фалсафа док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б.; Davlatova H.U. Bolalar nutqi: psixolingvistik xususiyatlari va shakllanish omillari. Filol.fan.b.falsafa dok. (PhD) ... avtoref. – Andijon, 2023; Yarasheva N. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi. Filol.fan.b.falsafa dok. (PhD) ... avtoref. – Samarqand, 2023; Musayeva N. Bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari. Filol.fan.d-ri (DSc)...diss. – Qarshi, 2024; O.Saidahmedova. Tabiiy tartib gipotezasining o'zbek tili uchun talqini. Filol.fan.b.falsafa dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2021. – 168 b.

maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining fonetik, leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlari talqini, bolalar va o'smirlar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik hamda pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan.

O'zbek tilshunosligida bolalar nutqining fonetik xususiyatlari masalasiga oid ayrim maqolalar ham e'lon qilingan⁴.

Ko'rinadiki, bugungi kunda bolalar nutqining lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik hamda pragmatik xususiyatlari bo'yicha ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bolalar nutqi antropotsentrik aspektida kompleks holda maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi yo'nalishi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik, lingvomadaniy va gender xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik yoshdagi bolalarga xos vokalizatsiyaning sotsiopsixolingvistik xoslanishini ochib berish;

bolalar nutqidagi leksik birliklarning semantik xususiyatlarini tadqiq etish;

bolalarning nutq ontogenezi bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

bolalar muloqotida noverbal vositalarning o'rni, ularning gender xoslanishi va lingvomadaniy xususiyatlarini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahrida yashovchi maktabgacha yoshda bo'lgan o'zbek bolalari nutqi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek bolalari nutqini sotsiopsixolingvistik, gender va lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish orqali bolalar nutqidagi o'ziga xos xususiyatlarni yoritish, ontogenez jarayonining til shakllanishi va rivojlanishida tutgan o'rnini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, funksional-semantik tahlil, statistik tahlil, kuzatish, tajriba, so'rov hamda suhbat metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik yoshdagi bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik tahlili natijasida vokalizatsiyaning ijtimoiy muhit, emotsional holat, gender xoslanish hamda kommunikativ vazifalar bilan bog'liqligi dalillangan;

bolalar nutqining funksional-semantik jihatdan mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash jarayonida leksik birliklarning funksional-semantik taraqqiyot bosqichlari ochib berilgan;

⁴ Умархўжаева О. Болалар нутқининг баъзи фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – № 5. – Б. 52–53.

bolalar nutqining paydo bo'lish bosqichlari, har bir yosh davriga xos xususiyatlar, nutq rivojiga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek tafakkur va nutq munosabatining voqelanishi aniqlangan;

bolalar muloqotida noverbal vositalarning muayyan ehtiyojni qondirish, ko'zlangan kommunikativ maqsadga erishish, emotsional-psixologik holatni ifodalash maqsadi belgilanib, nutqda gender va lingvomadaniy omillarning muhimligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bolalar nutqi masalasi jahon va o'zbek tilshunosligidagi ilmiy nazariyalar asosida o'rganilib, o'zbek bolalari nutqining sotsiolingvistik, psixolingvistik, gender va lingvomadaniy o'ziga xos xususiyatlari oydinlashtirilgan;

tadqiqot natijalari orqali bolalar nutqini o'stirish, rivojlantirish va lug'at zaxirasini boyitishdagi ahamiyati amaliy jihatdan asoslangan;

tadqiqotda chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichining Lingvistika yo'nalishida "Psixolingvistika", "Lingvomadaniyatshunoslik" hamda "Sotsiolingvistika" fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratishga xizmat qilishi dalillangan;

bolalar nutqining gender va lingvomadaniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislari uchun zarur manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar qiyoslash, tavsiflash, funksional-semantik, statistik, kuzatish, tajriba, so'rov, suhbat metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bolalar nutqining sotsiolingvistik, psixolingvistik, gender va lingvomadaniy xususiyatlariga doir mavjud nazariy qarashlarni yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bolalar nutqini rivojlantirish uchun amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda, "Til nazariyasi", "Sotsiolingvistika", "Psixolingvistika" va "Lingvomadaniyatshunoslik" fanlaridan ma'ruza o'qishda, amaliy mashg'ulot va seminarlarni tashkil qilishda, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik, gender va lingvomadaniy tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

kichik yoshdagi bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik tahlili natijasida vokalizatsiyaning ijtimoiy muhit, emotsional holat, gender xoslanish hamda kommunikativ vazifalar bilan bog'liqligi haqidagi ilmiy xulosalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan BV-Atex-2018-(143) raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar

uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o‘qish va yozish imkonini beruvchi o‘zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta‘minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat amaliy granti loyihasi doirasida “UzNutq Sintezator” kompyuter dasturini yaratishda foydalanildi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-fevraldagi 04/1-497-son ma‘lumotnomasi). Natijada, loyihada elektron matnlarni adabiy talaffuz me‘yorlariga muvofiq tarzda ovozli xabarga aylantiruvchi o‘zbek nutq sintezatori lingvistik ta‘minoti va audio ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda foydalanilgan;

bolalar nutqining funksional-semantik jihatdan mushtarak va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash jarayonida leksik birliklarning funksional-semantik taraqqiyot bosqichlari ochib berilganiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan BV-Atex-2018-(143) raqamli “Ko‘zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o‘qish va yozish imkonini beruvchi o‘zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta‘minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat amaliy granti loyihasi doirasida “UzNutq Sintezator” kompyuter dasturini yaratishda foydalanildi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-fevraldagi 04/1-497-son ma‘lumotnomasi). Natijada, dasturiy ta‘minot amaliy ma‘lumotlar va o‘quv materiallari bilan boyitilgan;

bolalar nutqining paydo bo‘lish bosqichlari, har bir yosh davriga xos xususiyatlar, nutq rivojiga ta‘sir etuvchi omillar, shuningdek tafakkur va nutq munosabatining voqelanishi haqidagi va ontogenez jarayonidagi leksik birliklarning semantik xususiyatlari, gap va uning kommunikativ xususiyatlari, bola tafakkurining lingvomadaniy jamoada shakllanishi omillari bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan va natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish” nomli grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-fevraldagi 04/1-496-son ma‘lumotnomasi). Natijada, korpuslarda xususiy fan atamalari kodirovkasiga oid metodologiya yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

bolalar muloqotida noverbal vositalarning muayyan ehtiyojni qondirish, ko‘zlangan kommunikativ maqsadga erishish, emotsional-psixologik holatni ifodalash maqsadi belgilanib, nutqda gender va lingvomadaniy omillarning muhimligi haqidagi taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalining “O‘zbekiston” telekanalining “Assalom, O‘zbekiston!” dasturining mavzuga daxldor ayrim ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” Ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 16-dekabrda 05-09-2029-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvda bolalar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari, bolalar nutq rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar, o‘zbek bolalari nutqida uchrovchi

qiziqarli “so‘z-ijod” namunalaridan, nutqni rivojlantirishga qaratilgan maslahat va ilmiy xulosalardan keng jamoatchilikka yetkazishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 42 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, shundan: 9 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Umumiy hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obyekt va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bolalar nutqining antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganilishi”** deb nomlangan. Bobning *“Bolalar nutqining sotsiolingvistik aspektidagi tadqiqi”* deb atalgan 1.1. paragrafida bolalar nutqi fenomenining tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida o‘rganilishi bilan birga, uning sotsiolingvistik xususiyatlari, bolaning ona tilini egallashi va bu hodisaning shaxs ijtimoiylashuvidagi ta‘siri, nutqiy faoliyatda lisoniy vaziyatning ahamiyati masalalariga munosabat bildirilgan.

Bolalar nutqi xususida jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan⁵. Bu ishlarning aksariyatida bola nutqi asosan psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Nutqning ontogenetik holati rivoji nutqiy faoliyat negizida lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik nuqtayi nazardan atroflicha tadqiq qilingan.

So‘nggi yillarda turkiy tillar o‘rtasida ham ontolingvistika masalasiga qiziqish tobora kengayib bormoqda. Insonning qay tarzda so‘zlashi, unda nutqning paydo bo‘lish va shakllanish jarayoni bilan bog‘liq masalalar qardosh bo‘lgan til

⁵McNeill D. The acquisition of language. – N.Y. 1970; Slobin D., Ferguson Ch. Studies of child language development. – N.Y. 1973; Elliot A.G. Child language. – Cambridge: Cambridge Univ.Press, 1988. – P. 174–175; Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.-Л., Учпедгиз, 1932; Горелов И.Н. Проблема функционального базиса речи в онтогенезе. – Челябинск, 1974; Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – СПб: Детство-Пресс, 2007; Леонтьев А.А. Исследования детской речи // Основы теории речевой деятельности – М., 1974; Негневицкая Е.И., Шахнарович А.М. Язык и дети. – М., 1981; Выготский Л.С. Мышление и речь. Собр.соч., т. 2. – М., 1982; Психоллингвистика. Сборник статей. – М.: Прогресс, 1984; Исенина Е.И. Психоллингвистические закономерности речевого онтогенеза: Дословесный период. – Иваново, 1983; Становление речи и усвоение языка ребенком (под ред. Ю.В. Рождественского) – М., 1985; Ветрова В.В., Годовикова Д.Б. Общение и речь: Развитие речи у детей в общении со взрослыми. – М.: Педагогика, 1985; Гридина Т.А. Онтолингвистика. Язык в зеркале детской речи. – СПб: Флинта, 2006.

vakillarida qay holatda namoyon bo'lishi tadqiqotchilarni, ayniqsa, qiziqtirib kelgan. Qozoq, turk va uyg'ur tillari misolida bolalar nutqiga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud.

Ma'lumki, bolalar kattalarning me'yoriy nutqini o'zlashtirgan holda muayyan til qoidalari asosida so'zlash bilan birga, nutq me'yorlariga zid bo'lgan so'z shakllarini ham qo'llaydilar. Til birligi kattalar nutqidan bolalar nutqiga o'zlashishi uchun uning ma'nosi bolaga tushunarli bo'lishi va to'g'ri ifodalanishi, har bir leksik birlik sintagmatik qatorda alohida ajralib turishi kerak. Bunda bola tomonidan o'zlashtirilgan yangi lug'aviy birlik unga tanish bo'lgan leksemalar bilan tizimli ravishda bog'lanadi. Bu holatning ijtimoiy muhitda namoyon bo'lishi mazkur izlanishlarda o'z aksini topgan.

A.K.Shayaxmetova, R.K.Turganbekova kabi qozoq tilshunoslarning ilmiy izlanishlarida nutq ontogenezinining qozoq tiliga xos xususiyatlari tahlilga tortilgan. Binobarin, A.K.Shayaxmetovanning tadqiqotida qozoq-rus bilingvizmi hodisasi bolalar nutqi misolida o'rganilgan bo'lsa⁶, R.K.Turganbekovanning ishida shaxs lisoniy salohiyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlilga tortilgan⁷.

O'zbek tilshunosligida 1980-yillarga kelib bolalar nutqi masalasini o'rganishga e'tibor qaratila boshladi. Xususan, M.S.Ismoilovning tadqiqotida o'zbek va rus tillaridagi ikki tillilik masalasi, N.S.Sayidirahimovanning ishida bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari tadqiq etildi⁸. O'zbek tilshunosligida bolalar nutqini antropotsentrik aspektda o'rganishga bag'ishlangan ishlar sifatida M.Qurbonova, M.Shamsiyeva hamda D.Yuldashevalarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin⁹. Jumladan, M.Qurbonova o'zbek bolalari nutqining sotsiopsixolingvistik hamda pragmatik xususiyatlarini, M.Shamsiyeva bilingval bolalar nutqining psixolingvistik jihatlarini, D.Yuldasheva esa bolalar nutqini og'zaki va yozma matnlar asosida antropotsentrik nuqtayi nazardan tadqiq etdi.

Ijtimoiy hayotga endi kirib kelayotgan bola o'zini o'rab turgan muhit bilan muloqotga kirishar ekan, uning nutqiy faoliyati ham ijtimoiylashuv jarayoniga kirishadi. Til hodisalari turli ko'rinishda bolalar nutqida uchraydi, shu bilan birga bunda katta yoshli shaxs nutqiga o'xshamagan va o'ziga xos xususiyatlar borki, bular bolalar nutqi, nutqiy faoliyati va lisoniy axloqining kommunikativ ifodasini belgilab beradi. Bolalar nutqining bunday kommunikativ jihatlarini sotsiolingvistik tadqiqotlarda atroflicha o'rganilgan.

⁶ Шаяхметова А.К. Онтолингвистика: прошлое и настоящее // Қазақ тілі ғасырлар тоғысында: теориясы, тарихы және қазіргі жайы. – Алматы: Арыс, 2007. – С. 513.

⁷ Турганбекова Р. Факторы, влияющие на развитие языковой личности // «Оразовские чтения-2» Материалы международной научно-практической конференции. – Шымкент, 2015. – С. 341–343.

⁸ Исмаилов М.С. Грамматические способы выражения пространственных отношений при двуязычии (на материале узбекско-русского раннего двуязычия). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1988. – С. 26; Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 126 б.

⁹ Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихоллингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 153 б.; Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – 240 б.; Шамсиева М.Б. Билингвал болалар нутқининг психоллингвистик тадқиқи. Филол. фан. б. фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 126 б.; Юлдашева Д.М. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Фарғона, 2022. – 223 б.

Bobning “*Bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari tahlili*” deb nomlangan 1.2. paragrafida bola nutqining rivojlanishidagi asosiy omillar, lisoniy qobiliyat, lisoniy ong, nutq va tafakkur masalalari yoritilgan.

Psixolingvistikada uzoq yillardan beri olimlarni bola qanday qilib gapira boshlaydi, degan savol o‘ylantirib keladi. Mazkur masalani tadqiq qilish natijasida yangi yo‘nalish – ontolingvistika maydonga keldi. U bolalar nutqini har tomonlama o‘rganish orqali uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Bolalar nutqiga oid dastlabki qarashlar fransuz psixologi J.Piaje tadqiqotlarida tahlil qilinadi. Olim bolalar nutqi va tafakkuri, bolada dunyoqarash va ongning shakllanishi hamda rivojlanishining o‘rganilishiga bag‘ishlangan qator izlanishlarni amalga oshirgan¹⁰. J.Piaje bola nutqi va tafakkurini tadqiq etishda ilk bor o‘zi ishlab chiqqan va fanga kiritgan klinik uslubdan foydalanadi. Bu uslub negizini bola nutqi va uning mantiqiy fikrlash qobiliyati natijasida yuzaga keladigan turli sistematik xulosalar tashkil etadi. Fanda ilgari bolada kattalar bilan qiyoslaganda nimalar yo‘qligiga (mavhum fikrlash, ongda tushunchaning shakllanishi, fikr yuritish tizimi, mantiqiy xulosa chiqara olishga) asoslangan holda bola nutqi tekshirilgan. J.Piaje esa e‘tiborni bolada mavjud qobiliyatga qaratadi: bola tafakkurining xususiyatlari nimalardan iborat, dunyo hodisalari bola ongida qay tarzda namoyon bo‘ladi va h.k. Olim bu bilan ontolingvistika taraqqiyoti uchun o‘ta muhim va jiddiy xulosalarni kashf etadi. Uning e‘tirof etishicha, bola ongi dastavval toza, sof bo‘ladi. U jamiyatga kirib borishi bilan bolaning ongida ham ijtimoiylashuv yuz bera boradi. Natijada bola tafakkuri umumiylikdan xususiylikka, ya’ni, keng qamrovdan tor qamrovga tushib qoladi.

Rus tilshunos va psixolog olimi A.A.Leontyev til tarixida u yoki bu me‘yoriy hodisalarning saqlanib kelishi, til taraqqiyotining an‘analari nima bilan bog‘liq, degan savolga bu – yangi avlod muayyan tilda so‘zlashuvchilarning til xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirishi va amalda tatbiq etishlariga bog‘liq, deb javob beradi¹¹. Bola til hodisalarini o‘zlashtirish davomida mavjud me‘yoriy faktlar bilan to‘qnashadi. U so‘zning talaffuz tomonini ham, tushuncha tomonini ham o‘z tafakkuriga loyiq holda qabul qiladi. Bunday tovush va ma‘no me‘yorlariga tayangan bola til tizimini aynan shunday o‘zlashtiradi. Bolaning lisoniy hodisalarni o‘zlashtirishi bu uning til qoidalariga moslashishi emas, balki psixofiziologik jihatdan tilning muayyan me‘yorlari uning ongiga singadi, qolganlari ma‘lum bir vaqt mobaynida bola tilida ko‘p qo‘llanishi natijasida voqelanadi.

Bobning 1.3. paragrafi “*Bolalar nutqiga doir lingvomadaniy aspektdagi tadqiqotlar tahlili*” deb nomlangan. Bolalar nutqi fenomeni ko‘p qirrali hodisa va shunga ko‘ra turli yo‘nalishlarning o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Bu holat, tabiiy ravishda, uning tadqiqida turlicha yondashuvlar bo‘lishini asoslaydi. XXI asrga kelib tilshunoslikda tilga muloqot qilish va bilish vazifalaridan tashqari millatning madaniy belgisi sifatida qarash ham jadal sur‘atda rivojlana boshladi. Shu bois bolalar nutqi masalasini lingvomadaniy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor ham kuchaydi. Xususan, xitoylik tadqiqotchi Chjin Sining “Lisoniy idrokda bola obrazi”

¹⁰ Пиаже Ж. Избранные психологические труды. – М.: Учпедгиз, 1969. – С. 106.

¹¹ Леонтьев А.А. Слово в речевой деятельности. – М., 1969. – С. 84.

(turli lingvomadaniyatlar misolida) mavzusidagi dissertatsiyasida bola atamasining turli tillarda nominativ-semantik jihatdan xoslanishi o'rganilgan¹². Mazkur izlanishda olib borilgan assotsiativ tajriba natijalariga ko'ra, rus va xitoy bolalarining tashqi ko'rinishi, xulq-atvori va ijtimoiy maqomidagi farqlar ko'rsatib beriladi. Asosiy tafovutlar sifatida muayyan madaniyatdagi bolani tarbiyalashga qaratilgan an'analar, urf-odatlar hamda go'zallik etaloni bilan bog'liq jihatlar qayd etiladi.

Rus tadqiqotchilar I.I.Chumak-Jun, S.V.Kovalyova, M.I.Sayenkolarning "Bolalar folklor matnining lingvopragmatik va lingvomadaniy aspektlari" nomli maqolasida asosiy e'tibor bolalar tarbiyasi uchun muhim bo'lgan alla janriga qaratiladi¹³. E.A.Flakning "Ona tili haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda lingvomadaniy yondashuvni qo'llash" nomli ilmiy maqolasida o'quvchining lisoniy qobiliyati shaxs sifatida shakllanishida lingvomadaniy yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati, bu yondashuvning zamonaviy rus tili ta'limida kompetentlik yondashuvi bilan bog'liqligi asoslanadi. Lingvomadaniy kompetensiyaning kommunikativ va lingvistik kompetensiyalar bilan o'zaro aloqasi ko'rib chiqiladi, o'quvchilarning lisoniy shaxsini shakllantirish uchun turli shakl va metodikalardan foydalangan holda lingvistik masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar beriladi¹⁴.

N.S.Starjinskayaning "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda lingvomadaniy yondashuvni yaqin qarindosh tillar misolida amalga oshirishning metodik yo'nalishlari" ilmiy maqolasi ham bolalar nutqini lingvomadaniy jihatdan o'ziga xos tadqiq etishga imkon beradi¹⁵. Maqolada rus tilida so'zlashuvchi maktabgacha yoshdagi bolalarda belorus tilida nutqni rivojlantirishga qaratilgan lingvomadaniy yondashuvni amalga oshirishning metodik yo'nalishlari yoritilgan.

N.V.Chernova diqqatini bolalar nutqidagi lingvomadaniy xususiyatlarning gender jihatdan farqlanishiga qaratadi¹⁶. Bolalarda jinsiy identifikatsiyaga bog'liq holda til orqali shakllanadigan olamning lisoniy manzarasini vujudga keltirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi, shuningdek o'g'il va qiz bolalarning nutqiy xulq-atvoridagi leksik, semantik hamda pragmatik farqlar tahlil qilinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik xususiyatlari"** deb nomlangan. Bobning *"Kichik yoshdagi bolalarga xos vokalizatsiya"* deb atalgan 2.1. paragrafida ontogenez jarayoni va bolalarda nutq tovushlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

¹²Цзинь Чжи. Образ ребёнка в языковом сознании (на примере разных лингвокультур). Дисс... канд. филологических наук. – Челябинск, 2019. – С. 255.

¹³ Чумак И.И., Ковалева С.В., Саенко М.И. Лингвопрагматические и лингвокультурные аспекты детского фольклорного текста // Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования. 2022. Т. 8. № 1. – С. 98–107.

¹⁴ Флак Е.А. Реализация лингвокультурологического подхода в формировании представления о родном языке//<https://multiurok.ru/files/realizatsiia-lingvokul-turologichieskogo-podkhoda-pri-formirovanii-priedstavleniia-o-rodnom-iazykie.html>

¹⁵ Старжинская Н.С. Методические направления реализации лингвокультурологического подхода к развитию речи дошкольников на близкородственном языке// <http://elib.bspu.by/handle/doc/23952>

¹⁶ Чернова Н.В. Гендерные особенности лингвокультурологического аспекта детской речи // <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/17812/21728>

O'zbek bolalari ham avval ma'lum unli tovushlarni, keyin unlilarning barchasini va muayyan undosh tovushlarni alohida-alohida, keyinchalik unli va undosh tovushlarni qo'shgan holda ifoda etishi qayd etiladi.

G'udranish davri bola lisoniy hayotida muhim davr hisoblanadi, chunki bu tovushiy ifodalar bolaning odamlar va atrofdagi narsa-predmetlar bilan muloqotga kirishishiga tayyorgarlik davri bo'lib, u katta yoshli odamlardan eshitgan tovushga taqlid qilishga urinadi. Bolaning til tovush tizimini egallashi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Dastlab bolalar o'z nutqida *b, m, k, p, v, d, t* kabi tovushlarni aniq farqlaydi, biroq u talaffuziga ko'ra yaqinlikni tashkil qiluvchi jarangli-jarangsiz variantdagi korrelyativ tovushlarni ajratmaydi.

Bola rivojlanishining ilk davrlarida uning nutqida ayrim tovushlarning o'zlashtirilishi oson kechadi. Til xususiyatlaridan qat'i nazar, o'zbek bolalari, asosan, quyidagi tovushlarni eng avval o'zlashtirishlari aniqlandi: *b, p, m, f, v, t, d, n, k, g, x, h*.

O'zbek bolalari nutqida keng kuzatiluvchi ilk undosh tovushlar va tovush birikmalari quyidagilardir: *b, m, d, t, n, ng, g', ng', bg', g, sh, p*.

Kichik yosh davrida bola nutqida dunyoning barcha tillariga xos tovushlar mavjudligi kuzatiladi; bolaning lisoniy muhiti ta'siri natijasida asta-sekin faqat ona tili tizimiga xos tovushlar fonologik asos sifatida ongda tizimlanadi. Ba'zi tovushlarni talaffuz qilish bolaga 2 yoki 3 yoshga yetganida ham qiyinchilik tug'diradi, masalan, o'zbek bolalari uchun – *sh, ch, s, r, j* kabi tovushlar.

Bolalarning ona tili tovush tizimini egallash jarayonining quyidagi xronologik bosqichlarini ko'rsatish mumkin:

2-jadval

O'zbek bolalarining ona tili tovush tizimini o'zlashtirish xronologik bosqichlari

Yosh davri	Bolalar nutqida ifodalanishi
Unli tovushlar	
1 oydan 3-4 oygacha	<i>a /a:/, u/ u:/, i/ ɪ/</i>
3-4 oydan 5-6 oygacha	<i>o /o:/, e /e:/, o' /o':/</i>
Undosh tovushlar	
3-4 oydan 5-6 oygacha	<i>b, m, v, n</i>
5-6 oydan 9-10 oygacha	<i>d, t, g, y, sh</i>
9-10 oydan 1 yosh-u 1-2 oygacha	<i>k, x, k, p, f, s, g' z, h</i>
1 yosh-u 1-2 oydan 1 yosh-u 6-7 oygacha	<i>j, ch, l, q</i>
1 yosh-u 6-7 oydan keyin	<i>R</i>

Bolada kommunikativ muhit natijasida fonetik bo'linishga ega bo'lgan fonematik eshitish qobiliyati asta-sekinlik bilan shakllanib boradi. O'zbek bolalari 1 yarim yoshga kelib barcha unli va muayyan undoshlarni (*m, p, b, k, g, t, d, n, v, f, x, y*) talaffuz qila oladi.

Bobning “*Bolalar nutqidagi leksik birliklarning semantik jihatlari*” deb nomlangan 2.2. paragrafida bolaning doimiy tarzda muloqot jarayonini boshidan o‘tkazishi tadqiq qilinadi. Bolalar turli vaziyatlarda har xil ifodalarni o‘zlaricha pichirlab yoki ovoz chiqarib talaffuz etishi, bu o‘yin va mashg‘ulotga o‘ziga xos zavq hamda mazmun berishini alohida ta’kidlash kerak. Bu hodisa psixologiyada ichki nutq, ya’ni, “ko‘ngilda” aytiladigan nutq deb ataladi¹⁷. Nutqning paydo bo‘lish o‘rni ko‘ngil yoki qalb emas, balki miya yoki ongdir. Shuning uchun ichki nutqni aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgani sababli ichki tafakkur jarayoni deb izohlash mumkin. Kichik yosh davrida bolada ichki nutqning, ya’ni, o‘zi uchun va o‘ziga qaratilgan nutqning rivojlanishi keyinchalik uni ijtimoiy hayotdagi turli o‘ziga xos nutqiy vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilk davrda tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgan ichki nutq orqali bola o‘z fikrlarini, nutqiy xulqini rejalashtirish hamda boshqarishga ko‘nikma hosil qilib boradi. Ichki nutq tobora rivojlanib tashqi nutqning faollashishiga zamin yaratadi.

Bolaning ilk so‘zlari, asosan, bir yoki ikki bo‘g‘inli so‘zlar bo‘lib, ular katta yoshdagi odamning me’yoriy so‘zlaridan farq qiladi. Bolaning ilk so‘zlarni ifodalashi bevosita yaqin qarindoshlarining ta’siri natijasida yuz beradi. Masalan, bolada “yomon” ma’nosida “*bji*” yoki “*kaka*”, “yaxshi” so‘zi o‘rnida “*oh*” yoki “*opoq*”, “issiq” so‘zi o‘rniga “*puf*” yoki “*pish*”, “yangi” ma’nosida “*jiji*” yoki “*hay-hay*” kabi nominativ birliklar ota-onasi, bobo-buvisi yoki aka-opalari bilan muloqot natijasida shakllanadi.

Bir yoshga to‘lgan bolaning so‘z zaxirasi o‘ntadan ko‘proq so‘zni tashkil qiladi. Bu so‘zlar, odatda, unga yaqin odamlarning ismlari, narsa-buyum nomlari, nutqiy vaziyatda faol ishlatiluvchi harakat nomlarini tashkil qiladi. Bu so‘zlar bir xil bo‘g‘inning takroridan (*dada, didit, vov-vov, ashsha, nanna, oppa, bapa*) tashkil topishi mumkin. Bolaning so‘zlari bu davrda omonim xususiyatga ega bo‘lib, u bir-biriga yaqin yoki umuman o‘xshash bo‘lmagan turli predmet, holat, vaziyat va harakatlarni ifodalaydi. Masalan, Temurbek ismli (1 yoshu 1 oy) bola nutqida “*dada*” so‘zi, otasiga, onasiga, akalari va opasiga, telefon ovoziga, eshik qo‘ng‘irog‘iga, “ket” ma’nosida ham, “olib ber” ma’nosida ham shu so‘zni qo‘llashi kuzatiladi. Keyinchalik so‘z zaxirasining boyib borishi bilan uning nutqida “*dada*” so‘zi faqat otasiga nisbatan qo‘llangan. Ko‘rinadiki, bolaning ilk so‘zlari uni o‘rab turgan muhit va oilaviy sharoit bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Bola nutqidagi bir so‘zli ifodalar, asosan, bir yoki ikki bo‘g‘inli so‘zlardan iborat bo‘ladi: *a, opa, dada, nanna* va h.k. Bu so‘zlar, odatda, bola uchun muhim bo‘lgan kreativ situativ nutq modellarini ifodalaydi:

1. Bolaning atrofidagi unga eng yaqin odamlari: *ayya, adda, oppa, aka, amma, doda, abuv*;

2. Kundalik hayotda eng ko‘p kuzatiladigan harakat va holat nomlari: *ma, bey, tet, te, ishsha* (hojatga boraman), *oppa // o‘ppa* (ko‘tar), *uxxa* (uxlayman), *xam* (yeyman), *uuvp* (ichaman);

¹⁷ Игнатьев Е.И., Лукин Н.С., Громов М.Д. Психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 200.

3. Yeyish-ichish bilan bog'liq so'zlar (*nanna* (non), *buvva//umma* (suv), *oma* (olma), *cha* (choy), *ax* (barcha turdagi shirinliklar: konfet, shokolad, pechenye), *papa* (palov), *mamma* (sut), *ash* (ovqat), *shikoda* (shokolad), *an'an'* (saqich);

4. Kiyim-kechak turlari nomlari: *popoq* (paypoq, tufli, umuman, oyoqqa kiyiladigan narsalarning hammasi), *jiji* (kiyimlar);

5. Sifatlovchi so'zlar: *jiji* (chiroyli), *hay-hay* (yangi), *bji* (yomon), *jiz//pish* (issiq), *uunda* (uzoqda), *ax* (shirin);

6. O'yin va o'yinchoqlar, o'yin jarayoni bilan bog'liq so'zlar: *go'l* (koptok va futbol o'yini), *alla qizim* (qo'g'irchoq), *didit* (o'yinchoq mashina), *aji* (bekinmachoq o'yini va unda aytiladigan emotsional ifoda), *ba* (baland ovozni eshitganda), *bapa* (chaqaloq);

7. Atrofdagi bola ko'rishi va eshitishi mumkin bo'lgan narsa-predmet va hodisalarning nomlari: *chiq-chiq* (soat), *didit//bibip* (avtomobil), *tutut* (telefon), *uuv* (shamol), *go'ja* (ko'cha), *bobo* (katta yoshli odamlarning barchasi), *kitta* (kitob), *kali* (kalit), *uyy//uyya* (uy), *qu-qu* (qush, parranda), *miyov* (mushuk), *vov-vov* (kuchuk), *mo'* (sigir).

Ko'rinadiki, tilda gender xususiyatlarning namoyon bo'lishi uchun ba'zan bir so'zli ifodalar yetarli bo'lmaydi. Shunga qaramay, bolalarning ilk so'zlari uning ohangi, mazmuni va muayyan lisoniy vaziyatga ko'ra so'zning tanlanishida ijtimoiy jins, ya'ni, genderga aloqador xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Bobning 2.3. paragrafi "*Bolalar nutqiga oid grammatik birliklarning kommunikativ xususiyatlari*" deb nomlangan. Unda bola o'z ona tili grammatik qurilmasini egallashi va qo'llashiga doir kuzatuvlar bayon etilgan.

Bola ifodalarining grammatik tuzilishini tekshirish ham bizga qiziqarli xulosalarni beradi. Ma'lumki, tilda so'roq yoki inkor kabi kategoriyalarni ifodalovchi qator usullar mavjud. Ohangni ko'tarish yoki uni o'zgartirish orqali darak gapni so'roq mazmunli gapga aylantirish mumkin. Bola qisqa va oddiy ifodalar yaratadi. Biroq asta-sekin rivojlanayotgan bolaning fikr-o'ylari ham murakkablashib, takomillashib boradi. Tabiiyki, u bu fikrlarini reallashtirishda, og'zaki bayon etishda va so'z tanlashda qiynaladi. Shuning uchun uning ifodalarida grammatik qoidalar o'ziga xos qurilishga ega.

Bola nutqi o'sib rivojlanar ekan, turli so'zlarni o'zi tushunmagan holda qo'llashini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, bizning, ya'ni, katta yoshli kishilarning nutqida sanoq sonlar, tartib sonlar, umuman olganda, son yoki raqamlar muayyan o'ringa ega. Bola bu so'zlarni o'zlashtirib borar ekan, ba'zan ularni mazmuniga nomuvofiq holda ifoda etadi. Masalan, ikkita olmani ko'rsatib, "*bitta*" deydi, yoki to'rtta konfetni olib, "*bu – oltita*", deydi. Bolaga "yo'q bu oltita emas, to'rtta" deyilsa, u baribir "*oltita*" deb aytaveradi. Agar, undan sanab berishini so'rasangiz, to'rtta konfetga ko'rsatkich barmog'ni bir-bir tekkizib, "*bir, ikki, to'rt, olti*" deb konfetlarning oltita ekanini "isbotlab" beradi.

Kichik yoshli bola nutqida, eng avvalo, fe'l so'z turkumi (*ber, ko'tar, uxlayman, yemayman* kabi) va ot so'z turkumi (*olma, non, ona, dada, mashina* kabi)ga oid so'zlar keng qo'llanadi. Bola harakat va otni aniqroq ifodalash uchun nutqda sifat so'z turkumiga oid so'zlardan ham foydalanadi (*issiq non, muzday suv, ovqat shirin* kabi). Bu turkum so'zlardan so'ng esa son va olmosh

soʻz turkumlariga oid soʻzlar keladi: *oʻzimning kitobim, anavi yerdan, mana bu narsani, ikkita olma, bitta qalam* kabi. Ravish soʻz turkumiga oid soʻzlar 3–4 yoshli bola nutqida nisbatan kam uchraydi. Bundan tashqari yordamchi soʻzlar va modal soʻzlardan baʼzilari (*va, bilan, ha, yoʻq, bilmadim* kabi) bola tomonidan faol qoʻllansa, baʼzilarini 6–7 yoshidan boshlab yoki undan keyin qoʻllay boshlaydi.

Bola bir yoshga yetganida uning soʻz zaxirasi bir necha soʻzni tashkil etsa, qisqa vaqt ichida bu zaxira jadallik bilan oʻsadi. Ikki soʻzni qoʻshish orqali oʻziga xos soʻz birikmasi yoki gap hosil qila boshlagan bola nutqida bunday ifodalarning grammatik shakllari namoyon boʻla boradi. Bolaning ifodalari qisqa jumladan bora-bora toʻliq gaplargacha kengayadi. Ilk davrda bu hodisaning koʻrinishi quyidagicha: bola avval qisqa, ikki soʻzli birikmani aytib, keyin unga boshqa soʻzlarni qoʻshadi. Masalan, *uy yasadi ~ aka uy yasadi, buni obeyin ~ Bilolga buni obeyish keyak* kabi. Bunday ifodalar, ayniqsa, 2 yarim – 3 yoshli bolalar nutqida keng ravishda kuzatiladi. Bir koʻrinishda oddiy uchta soʻzdan tuzilgan bu gap uchta soʻzning shunchaki qoʻshilmasidan iborat emas. Bu gapda oʻziga xos grammatik konstruksiyani ajratish mumkin. Bola nutqidagi tin, intonatsiyaning sinishi, toʻxtalish ohangi uning oʻz nutqini toʻgʻri ifodalayotganini beixtiyor nazorat qilayotganidan dalolat beradi. U gapni ichida oʻylab, toʻgʻri tuzib olmasdan, balki toʻgʻridan-toʻgʻri ogʻzaki ravishda fikrlaydi. Shuning uchun uning koʻp gaplarida ohang katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bobning “*Bolalar nutqining assotsiativ-eksperimental tahlili*” deb atalgan 2.4. paragrafida stimuly soʻzlar vositasida oʻtkazilgan psixolingvistik assotsiativ eksperimentlarning natijalari yoritilgan.

T.N.Naumova tajribasi¹⁸ asosida Toshkent shahrida yashovchi oʻzbek bolalari bilan soʻz-stimullarga asoslangan assotsiativ tajriba oʻtkazildi. Tajribada 2 yosh-u 6 oylikdan 4 yosh-u 8 oylikkacha boʻlgan 5 nafar qiz bola va 5 nafar oʻgʻil bola ishtirok etdi. Retsipiyent, yaʼni, tajriba ishtirokchilarining ona tili – oʻzbek tili, ulardan baʼzilari bolalar bogʻchasiga boradilar. Bu kuzatuvning oʻziga xos tomoni shunda boʻldiki, har bir retsipiyent bilan uning yaqinlari, yaʼni, oila aʼzolari (ona va buvilari) ishtirokida, unga odatiy boʻlgan muhitda (uy sharoitida) ishlandi. Baʼzi stimuly soʻzlarni tushunish bolada qiyinchilik tugʻdirishini hisobga olib, ularni tasvirllovchi rasmlar kartochkalardan ham foydalanildi. Eksperiment har bir bola bilan alohida individual shaklda oʻtkazildi. Bolalar tomonidan berilgan javoblar yozma shaklda qayd etildi.

Mazkur kuzatuvda jami 15 ta stimuly soʻz yoki ular tasvirlangan rangli rasmlar kartochkalardan foydalanildi. Bolalarga toʻgʻridan-toʻgʻri savol berildi. Savollarga javob berish qiyinchilik tugʻdirganda bolalarga kartochkalar koʻrsatildi va ulardan “Bu nima?”, “Bu nimaning rasmi?”, “U nima qiladi?” kabi yordamchi savollar orqali bolalarning bergan javob reaksiyalari yozib olindi. Javoblar jami 141 ta reaksiyani tashkil qildi. Nisbatan kichik yoshdagi bolalarning savollarga bergan noverbal harakatlari ham muayyan nominativ mazmunga ega boʻlgani uchun biz bu javoblarni oʻziga xos, individual javob sifatida qabul qildik. Kuzatuv natijasida

¹⁸ Наумова Т.Н. О развитии значения слова в онтогенезе речи // Детская речь: проблемы и наблюдения. – Л., 1989. – С. 109–118.

bolalar javob reaksiyalarida stereotiplik yuqori darajada ekani alohida qayd qilindi. Natijalar quyidagi jadvalda aks ettirildi:

8-jadval

Toshkent shahrida yashovchi o'zbek bolalari bilan stimul so'zlarga asoslangan assotsiativ tajriba natijalari

Retsipiyentlar	Stimul so'z shakli	Javoblar ko'rsatkichi		
		Stereotiplik	O'ziga xoslik	Javob yo'q
Qiz bolalar	Ot	14	11	0
	Sifat	9	14	2
	Fe'l	16	8	1
O'g'il bolalar	Ot	11	11	3
	Sifat	10	13	2
	Fe'l	11	13	1

Javoblarda stereotiplikning eng yuqori darajasi qiz bolalar nutqida kuzatilib, asosan, nisbatan yoshi kichik retsipiyentlarda qayd qilindi. Ot va fe'l stimul so'zlarga berilgan assotsiativ javoblar sifat stimul so'zlarga nisbatan eng ko'p stereotip javoblarni jamladi. O'g'il bolalar nutqida esa, aksincha, javoblarda o'ziga xoslik, individual yondashuv keng qamrovliligi kuzatildi. Buni ayni kichik yoshida bolaning ijtimoiy va individual eng muhim hayotiy jarayonlarni so'z orqali o'rganishi va o'zlashtirishi bilan tushuntirish mumkin.

Bolalar tomonidan berilgan javoblar diqqat bilan o'rganilganda eng ko'p kuzatilgan holat – bu muayyan stimul so'zga boshqa bir so'z yoki tushuncha qarama-qarshi bo'ldi. Masalan: ota – *ona*, qiz – *o'g'il*; oq – *qora*, baland – *past* // *kichik* // *past emas* va h.k. Bunday qarama-qarshiliklar, A.A.Zalevskayaning ta'biricha, oppozitlar¹⁹ bo'lib, berilgan javoblarning 45%ida kuzatiladi.

Qayd qilingan natijalarni umumlashtirgan holda bola nutqidagi leksik birlikning semantik tarkibi va funksiyalarini quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Kategorial-sinonimik reaksiyalar: erkak – *adam* / *men* / *bola*; ayol – *oyim* / *qizla* / *siz*; uxlamok – *yotmok*;

2. Baholovchi-belgili sintagmatik reaksiyalar: erkak – *kuchli*; ayol – *chiroyli*; olma – *shirin*; yemoq – *shirin ovqatlar*;

3. Sintaktik reaksiyalar: olma – *yeydigan*; baland – *tepaga yetadigan*;

4. So'zdan yangi so'z yasovchi yoki o'zgartiruvchi reaksiyalar: mashina – *biip* / *di-dit* / *g'in*; oq – *oqoq*, uxlamok – *uxxa qilmoq* kabi.

Bolalar muayyan so'zni nomlashda berilgan stimul so'zga assotsiativ mazmundagi javob qidirar ekan, uning nutqida taqlid, katta yoshdagilardan anglashilgan so'z ma'nosini bilmasdan qo'llash va ma'lum doirada cheklangan stereotipik birliklar orqali ongida aks etgan mazmunni ifodalashga harakat qiladi.

Bolaning lug'at boyligi o'sib borishi bilan uning tilida o'ziga xos ikki so'z qo'shilmasidan hosil bo'lgan so'z birikmalari kuzatila boshlaydi. Bu ifodalar

¹⁹ Залевская А.А. Проблемы организации внутреннего лексикона человека. – Калинин: Калинин гос. ун-т, 1977. – С. 83.

mazmunan gapga teng bo'lsa ham, ular tuzilishi jihatidan so'z shakllarini eslatadi. Odatda, 1 yarim yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarning so'z zaxirasi o'rtacha 250–300 so'zni tashkil qiladi²⁰. Biroq bu o'rinda eng muhim jihat – bola so'z boyligining ortishi emas, balki uning so'zlarni biriktirib, muayyan mazmun kasb etishga erishishidir. Ana shu davrdan boshlab bola tili grammatik tuzilishi haqida fikr yuritish mumkin. Bu til egallashda alohida e'tibor talab qiladigan muhim bosqichlardan biridir.

